



O'ZBEKISTONDA MUSIQIY CHOLG'ULARNING TARIXIY TARAQQIYOTI

Tursunov Husniddin Isomovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi

Tel: +998-91-644-28-52

El.Pocht:husni2021@mail.ru

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-07>

ARTICLE INFO

Received: 23th January 2023

Accepted: 03rd February 2023

Online: 04th February 2023

KEY WORDS

Organologiya, torli cholg'ulardan: borbad, ud, rud, qo'buz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor, damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, bulamon, surnay, nay, qo'shnay, karnay, urma cholg'ulardan: daf, doira, nog'ora, safoil.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek milliy cholg'ulari xususida tarixiy manbalarda buyuk allomalarimiz tomonidan meros qilib qoldirilgan musiqiy risolalar va bugungi kunda milliy madaniyatimiz orqali yosh avlodni tarbiyalash yo'lida chiqarilayotgan qaror va farmonlar atroflicha o'rganildi. Tarixiy manbalarni o'rganishda musiqashunos olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari tavsif etilgan.

KIRISH

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Ushbu musiqiy madaniyat tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorligi, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib kelgan. Bu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli an'analarimizga bo'lgan e'tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq otabobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bizga tarixdan ma'lumki, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqa madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan.



Sobiq Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek: “Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol topitirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalarni qo'ymoqda”.¹

Zero, bugungi kunimizda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, milliy cholg'ularga murojaat qilishimiz tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

USULLAR:

Maqola mavzusini yoritishda o'tmish allomalarining musiqiy risolalari yuzasidan cholg'ushunoslik ilmining tavsifiy, tasnifiy, tarixiy-qiyosiy, tipologik va kompleks yondashuv tahlil usullari qo'llanildi. Shu jumladan, mavzuga doir barcha tarixiy manbalarni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar mahkamasining, Oliy ta'lim va o'rta maxsus vazirligining, Madaniyat vazirligining qarorlarini atroflicha o'rganilgan holda ilmiy yondoshuv asosida tahlil qilindi.

An'anaviy musiqa va cholg'ulardan yangragan milliy mumtoz kuylarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda, kishilar ongini shakllantirish yo'lida hamda barkamol avlod tarbiyasida muhim omillardan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 y. n PF-4947 “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.02.2017 y. n PF-4956 sonli “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida”gi farmonida, O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 30 avgustdagi PQ-4433-son “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” qarorida, O'zbekiston Respeblikasi Prezidentining “o'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi kabi qaror va farmonlarida bundan tashqari Vazirlar maxkamasining, Madaniyat vazirligining, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining qarorlarida belgilab berilgan yangilik va islohotlar nechog'lik milly madaniyatimiz yosh avlodni tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, musiqiy cholg'ular xalqlarning moddiy hamda ma'naviy boyligidir. Chunonchi, har bir xalq o'z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an'alarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma'naviyatiga xos yaratilgan amaliy san'at namunalari orqali ularga mos keluvchi cholg'ulariga egadirlar. O'zbek musiqiy cholg'ular olami bu xususda ma'nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e'tirof etib o'tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma'naviyati yuksak bo'lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir.

O'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda musiqaning barcha tarmoqlariga mos holda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. O'tmish allomalari Al-Forobiy (IX asr) o'zining “Katta

¹ Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. -Toshkent: O'zbekiston, 1997, 222-6.



musiqa kitobi”da, Safiuddin Urmaviy (XII asr) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog’iy (XIV asr) “Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy” risolasida, Ahmadiy (XIV asr) “Sozlar munozarasi” asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr) “Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy” risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr) “Musiqiy risola”sida, Amuliy (XVI asr) “Musiqiy risola”sida, Darvesh Ali Changiy (XVII asr) “Musiqiy risola”larida musiqiy cholg’ularni o’rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to’xtalib, o’z davrlarining musiqiy cholg’ulari tasnifotini bayon etganlar. O’tmishning zabardast shoirlari o’z asarlarida musiqiy cholg’ular nomlarini zikr etishda takror va takror murojaat etganlar. Ayniqsa, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o’z asarlarida musiqa ilmini eng nafosatli ilmlardan biri ekanligini ta’kidlab o’tgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tarixiy qo’lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O’rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg’ularining nomlari o’z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg’ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg’ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k. haqida) ma’lumotlar keltirilgan.

Torli cholg’ulardan: borbad, ud, rud, qo’buz, g’ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor;

Damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org’anun, sibizg’i, nayi anbon, chag’ona, bulamon, surnay, nay, qo’shnay, karnay;

Urma cholg’ulardan: daf, doira, nog’ora, safoil kabilar haqida turli darajadagi ma’lumotlar keltirilgan.

Bu musiqiy cholg’ularning xalqimiz orasida qadim-qadimdan meros bo’lib kelayotganligidan dalolat beradi. Ular ko’p asrlik tarixga ega, har biri milliy omillar bilan sug’orilgan.

Musiqiy cholg’ular madaniy merosni o’rganish masalasida, zamonaviy xalq hayotidagi ahamiyati hamda amaliyotda qo’llanilishi kesimida o’rganilishi mumkin. Mazkur soha batafsil maqolamiz mavzui sifatida xalq orasida mavjud cholg’ularning texnologik xususiyatlari va takomillashuv imkoniyatlarini yangi shart-sharoit bilan bog’liqlikda ochib berishni maqsad qildik.

Musiqiy cholg’ular moddiy madaniyat mahsuloti hisoblanib, ma’naviy madaniyatga ham aloqadordir. Cholg’ularning tuzilishi, ularning imkoniyatlari musiqiy tafakkur qonuniyatlarini hamda ma’lum darajada jamiyat rivojining muayyan bosqichda qaror topgan estetik didini ham aks ettiradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, uzoq o’tmishga nisbatan musiqiy cholg’ular yoki ularning madaniy yodgorliklarda saqlanib qolgan tasvirlari jamiyatning musiqiy hayoti haqida ma’lumotlarning yagona manbai hisoblanadi. Shu jihatdan, musiqiy cholg’ular haqida uzoq o’tmishdan bizgacha yetib kelgan turli afsona va rivoyatlar ham tariximizning musiqiy olami manzarasini chizib beradi.

Musiqiy cholg’ularning kelib chiqishini o’rganishda O’rta va yaqin Sharq musiqiy olami mifologiyasiga tegishli totemizm qatlamiga e’tibor qaratish joiz. Totemizm ibtidoiy-jamoa tuzumining qadimgi davrlarida, matriarxat hukmronligida yuzaga kelgan bo’lib, uning ilk tasavvurlari farishtalar, devu jinlar, hayvonlar va o’simliklar bilan bog’liq bo’lgan. Ushbu qatlamga oid afsonalarda rivoyat qilinishicha, kunlardan bir kuni bir olim sayohatga chiqib,



dam olish uchun bir daraxtning tagiga o'tiribdi. U shohdan-shohga sakrab yurgan maymunni ko'ribdi. Birdan maymun o'tkir shohga ilinib, qorni yorilib ketibdi va ichaklari ikkita shoh orasiga tortilib qolibdi. Bir oz vaqt o'tgach, bu ichaklar quribdi, shamol esib, undan yurakni maftun etuvchi tovush taralibdi. Olim bu ichaklarni olib, qiyshiq taxtaga tortib qo'ygan ekan, undan yana ham go'zal tovushlar taralibdi. So'ngra u bir necha tor yasab, taxta ostiga qovoq o'rnatibdi va natijada musiqiy cholg'u dunyoga kelibdi. Bundan keyin har bir olim o'zining ongi va tafakkurini ishga solib, bu cholg'uni qonun va rebab cholg'ulari yasalgunga qadar turlicha takomillashtirgan².

Demak musiqiy cholg'ularning kelib chiqishi qadim-qadim davrlarga borib taqalar ekan, insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlaridan o'tib, takomillashib bordi va o'rta asrlarga kelib ilk bora al-Forobiy, ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy singari mutafakkirlarning risolalarida ilmiy jihatdan o'z ifodasini topgan. O'rta asr olimlarining asarlaridagi musiqiy cholg'ularning yaratilishi, sozlarning texnologik tuzilishi va qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar nihoyatda qimmatli hisoblanib, cholg'ularning kelib chiqishidan boshlab, to bugungi kunga qadar boshdan kechirgan taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi.

Umuman olganda, o'rta asrlarga oid tarixiy materiallar musiqiy cholg'ularning mavjudlik manzarasini to'laqonli aks ettiradi. Bunda ilm ahli (al-Forobiy, ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy) musiqiy cholg'ularni nazariy tomonlama ta'riflagan bo'lsa, adabiyot va san'at ahli (Navoiy, Firdavsiy, Bobur) esa ularning amaliy tadbiri, hayotdagi o'rnidan hikoya qiladi.

Al-Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayevlar o'z risolalarida musiqiy cholg'ularga jiddiy e'tibor bilan yondoshib, ularni amaliyotdagi tutgan o'rni, ayrim o'ziga xos xususiyatlarini yoritganlar.

Odatda, musiqiy cholg'ular ijrochilik amaliyotining turli yo'nalishlarida qo'llanilib kelingan. Avvalo eng sodda cholg'ular yaratilib, kundalik hayot tarzida keng foydalanilganligini qayd etish joizdir. Bunday cholg'ular har bir xalqning cholg'ular dunyosida mavjud. Ayni paytda ham iste'molda bo'lib kelmoqda. O'zbek xalq ijrochilik amaliyotida saqlanib, qo'llanib kelinayotgan cholg'ulardan chang, qo'biz, sibizg'i shular jumlasidandir. Bu cholg'ularni tayyorlash va ijro etish ham oddiyligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

Davrlar o'tishi, jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'u sozlar ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib borgan. Tarixiy manbalarda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki torli, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari taqilganligi kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomillashishi bilan bog'liqdir. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega ekan, u xalq ma'naviy boyligi hamda mulki ekanligini e'tirof etish lozimdir.

Cholg'ushunoslik ilmi fanda "organologiya" deb yuritiladi va cholg'ularning shakllanishi, amaliyotda qo'llanilishi hamda rivojlanish mezonlarini ilmiy asoslab beradi. Ushbu fanning

² Зийа ад-Дин Нахшабий. Книга попугая (Тути-наме)./Пер.с персидского Е.Э.Бертельса. -М.,1982.



rivojida bir qator Sharq va G'arb olimlari qatorida o'zbek musiqashunos olimlari ham munosib tadqiqotlar olib borganlar. Qadimiy cholg'ular ko'proq tarixiy obidalar orqali kashf etilib, keyinchalik tarix, adabiyot va musiqiy risolalarda bayon etilgan.

Cholg'ularning ilk tasvirlari qadimgi odamlarning istiqomat joylari — g'orlarda, qoya toshlarda o'yib chizilgan, imoratlarning peshtoqlari, saroylarning devoriy suratlari, sopol idishlarga chizilgan suratlarda va terrakota haykalchalarida aksini topgan. O'rta Osiyo va O'zbekiston hududlarida Afrosiyob, Dalvarzintepa (Surxondaryo), Varaxsha (Buxoro), Ayritom, Zartepa, Qo'y qirilgan va Qo'zi qirilgan tepalar (Ko'hna Urganch), Panjikent kabi qadimiy joylar qazilmalaridan topilgan chizma surat va haykalchalar shular jumlasidandir. Qadimiy suratlarda arfa, ud, naysimon hamda urma cholg'ular aks ettirilgan. Musiqiy cholg'u ijrochiligiga bo'lgan ehtiyojni aynan ushbu suratlardan ko'rish ham mumkin. Suratlarda nafaqat yakka ijrochilar yoki cholg'uning o'zi aks ettirilgan, balki, Ayritom qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalarda qadimgi So'g'd madaniyatiga xos ansambl, ya'ni bir qator musiqachilarning cholg'ularni guruh bo'lib ijro etayotganlarining aksi tushirilgan.

Musiqiy cholg'ularning ta'rifi, ya'ni ularning shakli va tuzilishlari, tarkibiy jihatlari, nomlari, ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar, asosan o'rta asrlardan boshlab badiiy adabiyot asarlari hamda musiqiy risolalarda yoritila boshlandi. Demak, o'rta asrlarga kelib qadimdan shakllanib va takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini topgan. Shu bilan birga nafaqat xalq, balki olimlarning e'tiborini ham qozongan. Bu jarayonni O.Matyoqubov "Maqomot" kitobida quyidagicha bayon etadi: "Cholg'ularga bunday atroflicha qiziqishlar zamirida musiqiy asboblarning ijrochilik faoliyatini ob'ektiv aks ettirishdir, degan ilmiy tushuncha yotadi. Forobiy ta'biri bilan aytganda, cholg'u asboblarning shakllanishi, avvalo, amaliyotda yuzaga keladi. Ularning tembr-akustik xususiyatlari parda va tovushqatorlari bevosita ijro jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shundan so'nggina cholg'ular olimlar kuzatuv va umumlashmalariga zamin bo'lishi mumkin"³.

Bunga ko'ra Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulloh al-Xorazmiy, Zaynullobiddin Husayniy, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy o'z risolalarida cholg'ular va ularning bir qator sifat va xususiyatlari xususida mufassal so'z yuritganlar.

Jumladan, Alisher Navoiy o'z zamonasining cholg'ularini shunday tavsiflaydi:

nay – "dard o'tiga el beradi";

g'ijjak – "cho'ziq nolalar chekib, yolboradi";

tanbur – "maftunkorlik bilan halok etadi, uning halovat pardasini chok etadi";

chang – "zorlanib, bo'g'zini cho'zadi";

ud - "yolborishi changnikidan ham ortadi";

rubob – "boshini erga qo'yib iltimos qilganda",

qonun - "nolasi quloqqa eshitaladi"⁴.

Hazrat Navoiy musiqiy sozlarga shunday ta'rif berar ekan, har bir cholg'uda inson qiyofasini ko'radi, har bir cholg'uning xususiyatini inson ruhiyati va tafakkuri bilan bog'laydi, har bir cholg'uning ahamiyatini odamzod dunyosi bilan chambarchas etadi. Umuman olganda,

³ O.Matyoqubov "Maqomot" T.: 2004

⁴ A.Navoiy. Maxbub ul-qulub. -T., G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti-1983.



o'рта asr mutafakkirlariga xos bo'lgan estetik dunyoqarashga mansub falsafiylik, mushohadaviylik, fikrga o'ta nozik bo'yoq berish xususiyati san'at sohasida, xususan, musiqiy cholg'ular sohasida yaqqol aks etadi.

Musiqqa san'atining boy ma'naviy jihatlari badiiy adabiyot namoyandalarini ham befarq qoldirmagan. Musiqqa sehri, cholg'ulardan taralgan sirli ohanglar Sharq badiiy proza va mumtoz she'riyati, badiiy adabiyotida o'ziga xos ifodasini topadi. Bular benazir cholg'u sozlar nomlanishi, o'z davrining mashhur ijodiyot namunalari, bastakor, sozanda va xonandalar ijodi, xalq musiqqa ijodiyoti va an'analarida ko'rinadi.

O'rta asrlarda musiqiy jarayonga ko'proq ahamiyat bergan adabiyot namoyandalari Firdavsiy, Rudakiy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy va Navoiylardir.

Jumladan: Firdavsiy "Shohnoma"da yozadi:

Yig'ildi akobir, cholg'uchi, raqqos,

Podsho shodligidan sochar dur, olmos.

Chiqar avjiga nay, childirma sasi,

Chirillab aylanar qizlar galasi.

Ulug'lar sha'niga qadah paydar-pay,

Sahargacha tinmas tanbur, rubob, nay.

Bundan ma'lumki nay, childirma (doira), tanbur, rubob ko'hna madaniyatimizning bir bo'lagi bo'lib kelgan.

Shunga o'xshash o'rta asrlarda yaratilgan tasviriy miniatyuralarda shoh huzurida, shohona bazmlarda ko'plab musiqiy cholg'ular ijro qilib turgan sozandalar o'z aksini topgan. Bunda qo'lida soz tutgan cholg'uchilar ansambllari keng o'rin egallaydi. XV-XVII asr miniatyuralari va yozma manbalarini o'rgana turib, maishiy hayot, turli yig'inlar va saroy qabullarida xilma-xil musiqiy cholg'ularning aks etganini kuzatish mumkin. Bu davrga kelib, O'rta Osiyo va Xurosonda cholg'u ijrochiligi madaniyati yuksak darajaga erishgan. Aksariyat hollarda musiqachilar oddiy hunarmandlar orasidan chiqqan bo'lib, musiqachilik kasbi ularga yuqori tabaqaga kirish uchun yo'l ochib bergan. Natijada, ud, nay, g'ijjak, tanbur va qonun ijrochiligida yuqori darajaga erishgan hunarmand yoshlar ziyoli insonlarning she'riy va musiqiy majlislarida qatnashish huquqini qo'lga kiritganlar. Musiqani tushunish, uning xususida fikr yurita olish har qanday ma'rifatli hirotlik yoki samarqandlik inson uchun majburiy hisoblangan. Bu davr she'riyatini varaqlaganda turli xil musiqiy cholg'ularning nomlarini uchratish mumkin. Bunda cholg'ularning yurakda ehtirosli muhabbat imkoniyatini berishga ega ekanligi aytiladiki, bu xususiyat o'rta asrlarda nihoyatda qadrlangan.

O'rta asrlarda musiqiy cholg'ularga nisbatan bo'lgan bunday ehtirom keyingi asrlarda ham an'anaga aylanib, davom etaverdi. Tabiiyki, keyingi o'tgan vaqt ichida davr tafakkurining o'zgarishi, mamlakatlararo aloqalarning ta'siri, ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarining rivoji natijasi o'laroq, musiqiy sozlar ham san'at ustalari qo'lida takomillashib, mukammallik darajasiga yetib boraverdi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017y.



2. Mirziyoyev Sh.M. “Madaniyat va san’at sohalari yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida” 2022 yil PQ112-son qarori
3. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. -Toshkent: O’zbekiston, 1997, 222-6..
4. Зийа ад-Дин Нахшабий. Книга попугая (Тути-наме)./Пер.с персидского Е.Э.Бертельса. -М.,1982.
5. O.Matyoqubov “Maqomot” T.: 2004
6. A.Navoiy. Maxbub ul-qulub. -T., G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti-1983.